



DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI TIZIMIDA PROKURATURA ORGANLARINING O'RNINI VA AHAMIYATI

Kayumov Umid Ismatillayevich

Toshkent viloyati prokuraturasi

bo'lim katta prokurori

umid9449@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14132874>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05- Noyabr 2024 yil

Ma'qullandi: 10- Noyabr 2024 yil

Nashr qilindi: 13- Noyabr 2024 yil

KEY WORDS

Amaliyot, davlat, jamiyat, prokuror, nazorat, huquq, qonun, organlar, sud-huquq, sohasi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada davlat hokimiyati organlari tizimida prokuratura organlarining o'rnini va ahamiyatiga doir masalalar tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada prokuratura organlarining o'rnini va ahamiyatiga yuzasidan olimlarning fikirlari o'rganilib, tegishli taklif va tavsiyalar berilgan.

Huquqiy tartibot har qanday davlatda iqtisodiy farovonlik va siyosiy- huquqiy barqarorlikka erishishdagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Aynan qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash orqali davlat o'z funksiyalarini samarali bajarib, jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlaydi hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini kafolatlaydi.

Tabiiyki, jamiyatda huquq-tartibotning o'rnatilishi va amal qilishida prokuratura organlarining faoliyati dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Prokurorlik nazorati hujjatlarining qo'llanish ko'lami yildan-yilga ortib borayotganligi jamiyatda qonuniylikning qoniqarsiz holati bilan birga, ayni vaqtda prokuror nazoratiga bo'lgan ehtiyojning haqiqiy zaruratini ko'rsatmoqda.

Har bir jamiyat o'z milliy davlatchiligini barpo etar ekan, eng avvalo, bugungi kun hamda kelajagi uchun asosiy strategik ustuvor maqsadlarni belgilab oladi va uning huquqiy asosini yaratadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayangan holda, demokratiya va ijtimoiy adolatga asoslangan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni bosh maqsad qilib oldi.

Ushbu maqsad 2023 yildagi Asosiy qonun – Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topdi. Chunonchi, Konstitutsiyaga muvofiq, xalq hokimiyatchiligi e'tirof etildi hamda Konstitutsiya va qonunning ustunligi so'zsiz tan olinishi belgilandi .

Jumladan, davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi lozimligi hamda davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rishlari shartligi mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanishi qayd etildi .

Shu o'rinda, davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayonida prokuratura qanday o'rin tutadi

va prokuror nazoratining ahamiyati nimalardan iborat bo'ladi degan savollar tug'ilishi tabiiydir.

Ma'lumki, XVIII asr o'rtalarida Sharl Lui Monteskye va boshqa mutafakkirlarning ta'limotiga asoslangan va keyinchalik Yevropada yuzaga kelgan parlament respublikalarining davlat qurilishida mujassamlashgan klassik sxema asosida hokimiyatlar bo'linishi bugungi kun davlatlaridagi tegishli organlarning funksiyalari va o'zaro munosabatlari hamda aloqadorligini huquqiy-siyosiy jihatdan belgilanishiga zamin yaratib berdi.

Shu asosda, parlament – qonun chiqaruvchi hokimiyatni ifoda etsa, hukumat qonunlar ijrosi va davlat hokimiyatini ta'minlaydi, sud – nizolarni huquqiy hal qilish va qonunni qo'llashni amalga oshiradi, prokuratura – qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish orqali inson huquq va erkinliklari, huquqiy tartibot va qonuniylikni ta'minlaydi.

Binobarin, davlat institutlari tizimida prokuratura organlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Prokuratura tarixi hamda xorij va mamlakatimizning huquqiy tizimiga ko'ra, prokuratura qonun ijrosini nazoratni amalga oshiruvchi, jinoyat sodir etgan shaxslarni ta'qib qiluvchi, sudda ishtirok etuvchi hamda huquqni himoya qilish funksiyalarini bajaruvchi maxsus vakolatli organdir.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi davlat nomidan Konstitutsiyaga rioya etilishi hamda O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat olib boruvchi davlatning ko'p funksiyali organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat organlari tizimida prokuratura organlarining tutgan o'rni va ahamiyatini belgilashga oid bir necha asosiy yo'nalishlar mavjud.

Birinchi, prokuratura davlat nazorati organidir. Qonunlarning bajarilishi ustidan prokuror nazorati o'ziga xos faoliyat hisoblanadi. Prokuraturaning mavjudligi bu – qonunchilik ehtiyojidir.

O'zbekiston Respublikasi hududida Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat bu mustaqil faoliyat bo'lib, faqatgina prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mazkur faoliyatni prokuratura organlaridan tashqari, boshqa hech qanday davlat va nodavlat organlari, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, uyushmalar, mansabdor shaxslar va boshqalar bajarishi mumkin emas.

Prokuratura nazorati davlat hokimiyatining biron-bir tarmog'i (sud, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi)ga mansub emas, shu bilan birga, ularning ayrim xos belgilariga ham ega.

Ikkinchi, prokuratura davlat institutlari tizimida alohida o'rin tutadi. U Konstitutsiyada nazarda tutilgan hokimiyat tarmoqlari bilan funksional munosabatlarga ega. Prokuratura nazorati ularning birortasi bilan to'liq bog'liq bo'lmay, ularni muvozanatlashtirib, optimal ishlashini ta'minlaydi.

Misol uchun, prokuratura O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Prezidenti oldida hisobdordir. Quyi turuvchi prokurorlar xalq deputatlari tegishli kengashlariga hisobot beradi. Ayni paytda, prokuratura deputatlarga nisbatan jinoiy ta'qibni amalga oshirish vakolatiga ega va hokazo.

Uchinchi, prokuratura va boshqa nazorat organlari nafaqat bir-biri bilan hamkorlik qilibgina qolmay, balki o'zaro o'zboshimchaliklardan tiyilishiga majbur qiladigan zarur vositalar majmuiga ega bo'lgan ikkita mustaqil tizim – nazorat va muvozanat tizimini ifodalaydi.

To'rtinchidan, prokuraturaning qonun chiqaruvchi hokimiyat organlari bilan o'zaro aloqadorligi shundan iboratki, uning asosiy vazifasi – qonunlarning bajarilishini nazorat qilish – butun qonun chiqaruvchi tizim barqarorligining kafolati hisoblanadi.

Shuningdek, prokuratura va qonun chiqaruvchi hokimiyat o'rtasidagi hamkorlikning yana bir muhim yo'nalishi qonun ijodkorligidir.

O'z imkoniyatlariga ko'ra prokuratura qonuniylik holati va tizimli muammolar haqida boshqa har qanday davlat organidan yaxshiroq xabardor bo'ladi. Shu bois, prokuraturaning qonun ijodkorligi faoliyati qonun chiqaruvchi uchun doimo samara keltiradi.

Beshinchidan, prokuratura nafaqat nazorat organi, balki jinoyat protsessining faol ishtirokchisi hamdir. Dastlabki tergovni olib borish, tergov va surishtiruv organlari ustidan nazorat, sud davlat ayblovini quvvatlash, sud hujjatlarining qonuniyligi va adolatligi yuzasidan yuqori instansiya sudlariga protest keltirish shular jumlasiga kiradi.

Ta'kidlash joizki, prokuraturaning jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi ta'sirchan rolini boshqa hech qaysi organ bajara olmaydi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida nazorat va muvofiqlashtirishda ifodalanadigan qorishiq funktsiya prokuror faoliyatini o'ziga xosligini namoyon qiluvchi asosiy xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Prokuratura o'z vakolatlari va vazifalari doirasida huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Ushbu funktsiya prokuror nazorati tarmoqlarining o'zaro birdamligini, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi yanada samarali kurashish uchun davlat hokimiyatining boshqa organlari, nodavlat tashkilotlari bilan muttasil hamkorlik qilishini nazarda tutadi.

Bu vazifa huquqni muhofaza qilish organlariga rahbarlik qilishni anglatmaydi, chunki ularning barchasi qonunga asosan va o'zlariga berilgan vakolatlari doirasida ish olib

boradi. Muvofiqlashtirish ularning faoliyatini yagona yondashuv asosida amalga oshirishga yo'naltirishni anglatadi. Jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida prokurorlar tomonidan oxirgi uch yil va joriy yilning 5 oyida 1 836 ta muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishlari o'tkazilib, tegishli qarorlar qabul qilingan.

Oltinchidan, prokuratura boshqa davlat organlari tomonidan fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini kafolatlovchi davlatning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Prokuraturaning davlat mexanizmida tutgan o'rniga taalluqli eng munozarali mavzulardan biri – uning hokimiyatlar taqsimlanishi tizimidagi o'rnini haqidagi masaladir.

Bu borada ilmiy adabiyotlarda har xil yondashuvlar ilgari surilgan. Garchi, ushbu masaladagi fikrlar har doim ham aniq va bir xil bo'lmasa-da, biroq, ularning umumiy xususiyatlari mavjud.

Jumladan, olimlarning bir guruhi prokuraturani ijro hokimiyatiga mansubligini ko'rsatishadi.

Masalan, rus huquqshunos olimi N.Fedorov prokuraturani tashkiliy jihatdan ijro etuvchi hokimiyat tarkibiga kiritishni taklif qiladi. Bunda, u chet el mamlakatlarining aksariyatida prokuratura hokimiyatning ijro etuvchi organlari tarkibiga kirishini dalil qilib keltiradi.

Shu kabi, yana bir guruh olimlar va amaliyotchilar prokuror vakolatlari ma'muriy va imperativ xususiyatga ega ekanligi sababli uni ijro etuvchi hokimiyat sifatida ta'kidlashadi.

Olimlarning ikkinchi guruhi esa, prokuratura mamlakat hududida qonunlarning bajarilishini, shuningdek, quyi huquqiy hujjatlarni qonunga muvofiqligini tekshirganligi uchun hanuzgacha

prokuratura hokimiyat qonun chiqaruvchi tarmog'ining o'ziga xos "qo'shimchasi" deb hisoblashadi.

Ushbu fikr tarafdorlari quyidagi mantiqqa tayanadilar: qonun chiqaruvchi hokimiyat qonunlar chiqaradi va prokuratura ularning butun mamlakat bo'ylab ijrosini nazorat qiladi.

Ularning fikriga ko'ra, prokuratura qonun chiqaruvchi hokimiyat mexanizmlaridan biridir, prokuror nazorati esa hokimiyatning maxsus turidir, u vakolatlarni bevosita qonun chiqaruvchidan olishi, ularni shakllantirishi va faqat uning oldida hisobdor bo'lishi kerak.

Masalan, rus olimlaridan biri V.Lomovskiy prokuratura qonun chiqaruvchi hokimiyat ostida bo'lishi kerak, deb hisoblaydi, chunki, bir tomondan, qonunlar qabul qilinganidan keyin oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat ularning bajarilishiga befarq qarab turolmaydi. Shuning uchun, u qonuniylikning birligini ta'minlash funksiyasini saqlab qoladi, uni bevosita, shuningdek, prokuratura organlari orqali amalga oshiradi.

Boshqa tomondan, prokuratura, ushbu muallif yozganidek, o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda davlatda "yolg'iz" bo'lolmaydi, uni qo'llab- quvvatlash kerak, chunki u ko'pincha "eng kuchli odamlarga" qarshilik ko'rsatishi kerak, shu bois, prokuratura qonun chiqaruvchi hokimiyat ostida bo'lishi kerak.

Fikrimizcha, yuqoridagi har ikkala guruh olimlari Rossiya huquq tizimi va amaliyotidan kelib chiqqan holda ilmiy qarashlarini bayon qilishgan bo'lib, bu qarashlar milliy huquq tizimimizga unchalik ham mos kelmaydi.

Chunki, birinchi guruh olimlari prokuraturaning qonunlar ijrosi ustidan nazorat bilan bog'liq faoliyatiga unchalik e'tibor qaratishmagan bo'lsalar, ikkinchi guruh olimlar, aksincha, ushbu faoliyatga ko'proq yondashishib, prokuraturaning jinoiy ta'qibni amalga oshirish, odil sudlovga ko'maklashish kabi vazifalariga to'xtalishmagan.

Shu o'rinda, uchinchi bir qarash tarafdori V.N.Yeryominaning ta'kidlashicha, "zamonaviy prokuratura hokimiyatning hech qaysi tarmog'iga kirmaydi, u hokimiyatlar bo'linishining shakllanayotgan tizimida zaruriy mexanizmni ifodalaydi hamda tiyib turish va muvozanat tizimining muhim elementi hisoblanadi. Prokuraturaning mustaqilligi – uning qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish sohasida muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur sharoitdir".

Professor A.D.Boykov ham, prokuratura davlatning qonuniylikni nazorat qiluvchi organi bo'lib, uning faoliyatini qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga nisbatan teng ravishda olib boradi, deb hisoblaydi.

Xuddi shunday, bu borada tadqiqotlar o'tkazgan o'zbekistonlik huquqshunoslar Z.Islomov, M.Radjabova, G'.Alimov, I.Jasimovlar ham prokuraturani davlat hokimiyatining hech qaysi tarmog'iga kirmasligini qayd etishgan.

Misol uchun, professor Z.Islomov prokuratura o'z funksiyalari mazmuniga ko'ra qonun chiqaruvchi yoki ijro hokimiyatiga mansub bo'la olmasligini ta'kidlagan.

Shu kabi, M.Radjabovaning fikriga ko'ra, prokuratura yuqoridagi ikkita hokimiyatdan farqli ravishda qonunlarning aniq va bir xilda qo'llanishini nazorat qiluvchi davlat hokimiyat organi hisoblanadi¹.

Yoki, G'.Alimov O'zbekiston Konstitutsiyasi normalarini tahlil qilib, "prokuratura Konstitutsiyada mustahkamlangan davlat hokimiyati tarmoqlarining birontasiga kirmaydi"² degan xulosaga kelgan.

Xuddi shunday, amaliyotchi huquqshunos I.Jasimov O'zbekiston prokuraturasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining birontasiga kirmaydigan, funksional jihatdan

mustaqil bo'lgan davlat- huquqiy instituti ekanligi haqidagi mulohazani ilgari surgan³. Fikrimizcha, ushbu olimlarning prokuraturaning hech qaysi hokimiyatga mansub bo'lmagan o'ziga xos, mustaqil, hokimiyatlar orasidagi oqilona muvozanatni ta'minlaydigan institut ekanligi haqidagi mulohazalarini huquqiy jihatdan va prokuraturaning tarixiy shakllanish mohiyatiga ko'ra to'g'ri deb hisoblash mumkin.

Shu o'rinda, hozirda prokuraturaning "sektor" bilan bog'liq funksiyalari tobora kengayib, asta-sekinlik bilan uni ijro hokimiyatiga bo'ysundirish jarayoni kechayotganligini hisobga olsak, prokuraturaning ijro hokimiyatidan mutlaqo mustaqil ekanligi haqidagi ta'rif bugungi kunda haqiqiy vaziyatga unchalik mos kelmay qolayotganligini ham qayd etib o'tmoqchimiz.

Shunday bo'lsa-da, prokuratura o'z vazifalari majmui va mohiyatiga ko'ra davlat hokimiyatining muhim unsuri hisoblanadi, u hokimiyat har bir tarmog'i o'z vakolatlarini qonun doirasida bajarishiga imkoniyat yaratadi, ayni vaqtda, qonuniylikning birligini ta'minlash asosida ularning o'zaro aloqasiga ko'maklashadi.

Fikrimizcha, "de jure" jihatdan ham, prokuraturaning mohiyatiga ko'ra ham uni davlat hokimiyatining bironta ham tarmog'i tarkibiga kiritish to'g'ri bo'lmaydi. Shu bilan birga, uni alohida "to'rtinchi hokimiyat" sifatida talqin qilish ham noto'g'ri. Chunki, u umummajburiy boshqaruv funksiyasiga ega emas.

Prokuratura faqat o'z funksiyalarini lozim darajada bajarishi uchun qonunga binoan berilgan hokimiyat vakolatlari va imkoniyatlarga egadir.

Bu borada, huquqshunos olim Z.Ibragimov prokuraturaning qaysi hokimiyat tarmog'iga mansubligi yoki alohida hokimiyat ekanligini huquqiy norma orqali belgilashni taklif etgan . U mazkur taklifiga asos sifatida shuni ta'kidlaydiki, hokimiyat bo'linishi ta'limoti (tamoyili) nuqtai nazaridan mamlakatimiz davlat hokimiyati tizimida prokuraturaning o'rni va roli aniq belgilanmaganligi O'zbekistondagi siyosiy-huquqiy rivojlanish darajasini, uning tarixi, madaniyati va an'alarini, inson huquqlari va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishning samarali tizimini yaratish maqsadiga qaratilgan tegishli "o'zaro tiyib turish va muvozanatlash tizimi"ni inobatga olgan holda prokuraturani rivojlantirishga doir izchil konsepsiyani yaratish, shuningdek, prokuraturani hokimiyatning boshqa tarmoqlari bilan munosabatini to'liq aniqlash imkonini bermaydi .

Professor M.Rustambayev va dotsent Ye.Nikifirova bu masalaga boshqa tomondan yondashib, davlatimizning huquqiy tizimi (barcha boshqa davlatlardagidek) ko'plab ichki aloqalar orqali bir-biri bilan uzviy bog'langan, normal faoliyat ko'rsatishi o'n yillar va undan ham ziyod muddatda asta- sekinlik bilan yuzaga kelgan murakkab mexanizmdan iboratdir.

Ushbu mexanizmning qaysidir bir qismini o'ylamasdan va shoshma- shosharlik bilan o'zgartirish mamlakatning butun huquqni muhofaza qilish tizimini izdan chiqarishi mumkin, degan fikrni ilgari suradilar .

Biroq, huquqiy davlat nazariyasi va amaliyotining takomillashuvi, AQSH, Yevropa ittifoqi va boshqa ilg'or davlatlardagi prezidentlik respublikalarining tajribasi hokimiyat tarmoqlarining mustaqilligi va o'zaro aloqadorligining samarasi faqat ularni kafolatlovchi mexanizmlar mavjud va amal qilgandagina namoyon bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi muvozanatni samarali ta'minlashdagi prokuraturaning o'rnini faqatgina yangi huquqiy me'yorlarni yaratish bilangina saqlab bo'lmaydi, balki bu masalaga mamlakatimizda vujudga kelgan hozirgi siyosiy-huquqiy ustqurma mohiyatidan kelib chiqib yondashish to'g'ri bo'ladi, deb

hisoblaymiz.

Prokuratura barcha hokimiyat tarmoqlari tomonidan qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirib, ular o'rtasida o'zaro muvozanat va cheklov rolini samarali o'tashi davlat va jamiyat uchun samarali bo'ladi.



INNOVATIVE
ACADEMY